O'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, davlat tashkilotlarida mentorlik tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida mentorlar salohiyatini oshirish masalasi (35,7 foiz) qayd etilgan. Mazkur holat tajribali mutaxassislarning yetarli emasligini emas, balki mavjud kadrlarning mentorlik kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni ushbu mas'uliyatli faoliyatga yanada tayyorlash zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, tizim samaradorligini yanada oshirish uchun motivatsiyani kuchaytirish (24,6 foiz), vaqt va resurslardan samarali foydalanish (14,8 foiz) kabi omillarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bu esa mentorlik faoliyatini asosiy ish jarayoniga uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Ekspertlarning fikricha, mentorlik tizimini yanada takomillashtirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlardan biri uning byurokratik jarayonlardan xoli holda samarali tashkil etilishidir. Ayrim hollarda mentorlik jarayoni xodimlarning kasbiy rivojlanishidan ko'ra hisobot va hujjatlarni rasmiylashtirishga ko'proq

yo'naltirilishi kuzatiladi. Shu bois mentorlik tizimini amaliy natijadorlikka yo'naltirish, uning mazmun-mohiyatini yanada boyitish va kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu paragrafda davlat tashkilotlarida mentorlik tizimining samarali faoliyat yuritishini yanada rivojlantirish bilan bog'liq institutsional jihatlar, kadrlar va vaqt resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, huquqiy maqomni takomillashtirish masalalari empirik ma'lumotlar hamda ekspert xulosalari asosida atroflicha tahlil qilinadi.

Tadqiqot davlat fuqarolik xizmatida rahbar kadrlarni tayyorlashda mentorlik (ustoz-shogird) tizimining samaradorligini baholashga qaratildi. Tadqiqot jarayoni ikki bosqichli bo'lib, miqdoriy va sifat yondashuvlari asosida tashkil etildi.

Birinchi bosqichda davlat fuqarolik xizmatchilari orasida ustoz-shogird tizimining amaldagi holati bo'yicha umumiy manzarani aniqlash maqsadida anketa so'rovlari o'tkazildi.

Ikkinchi bosqichda esa sohada aniqlangan dolzarb masalalar hamda ularning strategik yechimlarini tahlil qilish maqsadida ekspert so'rovlari usulida ma'lumotlar to'plandi.

Tadqiqotning ishonchligini ta'minlash maqsadida har ikki turdagi so'rov davomida respondentlar tarkibi ijtimoiy-demografik hamda kasbiy jihatdan muvozanatlashtirildi.

Anketa so'rovlarida jami 488 nafar respondent qatnashgan bo'lib, ularning 52,5 foizini (256 nafar) erkaklar, 47,5 foizini (232 nafar) esa ayollar tashkil etdi. Tanlanma majmuasida erkaklar va ayollar ulushining deyarli teng taqsimlanganligi, ya'ni ular o'rtasidagi farq atigi 5 foizni tashkil etishi tadqiqotning reprezentativligini ko'rsatadi. Mazkur holat olingan natijalarning jamiyatning har ikkala jins vakillari uchun ham xos ekanligini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. Demografik ko'rsatkichlar¹

Respondentlarning teng yarmi, ya'ni 50 foizi (244 nafar), **31–40 yosh** toifasiga to'g'ri keladi. Mazkur yosh guruhi professional shakllanishning eng faol bosqichida bo'lib, ham shogird, ham ustoz-mentor sifatida samarali faoliyat yurita oladigan qatlam hisoblanadi.


Tadqiqot ishtirokchilarining egallab turgan lavozimlari bo'yicha taqsimoti mentorlik institutining ijtimoiy iyerarxiyadagi o'rnini tushunish uchun muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

Respondentlarning mutlaq ko'pchiligi (72,5 foiz), ya'ni 354 nafari bevosita ijrochi mutaxassislardir. Mazkur qatlam mentorlik tizimining asosiy "iste'molchisi", ya'ni mentilar yoki kelgusidagi potensial mentorlar zaxirasi hisoblanadi. Ularning yuqori ulushi tadqiqot natijalarining amaliy yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

Jami respondentlarning salkam uchdan bir qismi (27,4 foiz) boshqaruv bo'g'ini vakillaridan iborat. O'rta bo'g'in rahbarlari (14,3 foiz — 70 nafar) mentorlik jarayonlarini bevosita tashkil etuvchi va muvofiqlashtiruvchi asosiy guruh hisoblanadi.

Quyi bo'g'in rahbarlari (7,4 foiz — 36 nafar) amaliy tajribani uzatishda bevosita ishtirok etuvchi qatlam hisoblanadi.

Yuqori bo'g'in rahbarlari (5,7 foiz — 28 nafar) esa mentorlik institutining strategik ahamiyatini belgilovchi hamda qaror qabul qiluvchi subyektlar hisoblanadi(2-rasm).

2-rasm. Respondentlarning lavozimi bo'yicha ko'rsatkichlari²


Tajribali va barqaror mutaxassislar (**11–20-yil** ish stajiga ega) respondentlarning eng katta qismini, ya'ni 38,1 foizini (186 nafar) tashkil etib, ular nafaqat o'z sohasining yetuk mutaxassislari, balki eng samarali ustozlar sifatida ham namoyon bo'ladilar.

Yuqori ish stajiga ega ekspertlar (**20-yildan ortiq**) respondentlarning 24,6 foizini (120 nafar) tashkil etadi. Mazkur guruh katta amaliy tajribaga ega bo'lib, mentorlik tizimining strategik poydevori, korporativ madaniyat va an'analarni davom ettiruvchi muhim salohiyat hisoblanadi.

Yangi avlod mutaxassislari (**1–5-yil** ish stajiga ega) ishtirokchilarning 23 foizini (112 nafar) tashkil etib, mehnat faoliyatini nisbatan yaqinda boshlagan qatlam hisoblanadi. Ular mentorlik institutining asosiy maqsadli auditoriyasi bo'lib, tajribali hamkasblarining ko'magiga eng ko'p ehtiyoj sezadigan guruhdir.

Shakllanish bosqichidagi kadrlar (**6–10-yil** ish stajiga ega) respondentlarning 14,3 foizini (70 nafar) tashkil etib, kasbiy ko'nikmalari izchil mustahkamlanib borayotgan mutaxassislardir.

Mazkur tadqiqotda, shuningdek, sotsiologik ma'lumotlarni to'plashning ekspert so'rovi usulidan foydalanildi. Unda jami 30 nafar ekspert ishtirok etdi. Tanlanma maqsadli saralash, ya'ni "**qor uyumi**" usulida — oldingi ekspert keyingi ekspertlarni tavsiya etishi tamoyili asosida shakllantirildi. Ishtirokchilar tarkibi kasbiy kompetensiyasi, ish staji hamda jinsi xususiyatlariga ko'ra saralandi. Ularning asosiy qismini **11-yildan ortiq** ish stajiga ega bo'lgan yuqori bo'g'in rahbarlari va ilmiy darajali mutaxassislar tashkil etdi. Mazkur guruh boy amaliy tajriba hamda zamonaviy boshqaruv bilimlarini o'zida mujassam etgan (3-rasm).

3-rasm. Mehnat stajiga ko'ra taqsimlanish³

So'rovda ayol va erkak ekspertlarning ishtirok etgani ularning qarashlaridagi o'ziga xos jihatlarni ishonch va ehtiyotkorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini berdi.

Ekspert so'rovi instrumentariysi sifatida 12 ta savoldan iborat tartiblashtirilgan so'rovnomadan foydalanildi. Savollar tanlash imkonini beruvchi yopiq (javob variantlari keltirilgan) hamda ekspertlarning shaxsiy fikrini bayon etishga imkon beruvchi ochiq formatlarda ishlab chiqildi.

Tadqiqot mentorlik tizimining amaldagi holatini empirik jihatdan o'rganish uchun asos yaratdi. Xususan, respondentlarning mazkur tizim haqidagi xabardorligi, uning samaradorlik ko'rsatkichlari hamda karyera lifti sifatida kasbiy o'sish imkoniyatlari bilan o'zaro integratsiyasi kabi masalalar atroflicha tahlil qilindi.

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi

Tadqiqotlarimiz davomida ushbu masala yuzasidan ko'plab ilg'or xorijiy davlatlarning davlat xizmatida mentorlik dasturlaridan foydalanish va ularni samarali qo'llash bo'yicha amaliy mexanizmlar o'rganildi. Singapur, Daniya, Germaniya va Birlashgan Arab Amirliklarida mentorlik tizimini joriy etish davlat boshqaruvida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar bilan tavsiflanadi.

Xususan, Singapurda davlat xizmatchilari uchun mentorlik tizimi kompetensiyalarga asoslangan holda raqamli platformalar bilan integratsiyalashgan tarzda amalga oshiriladi. *Civil Service College Singapore* tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarda individual rivojlanish rejalari hamda tajribaviy o'qitish usullari qo'llaniladi. Mazkur yondashuv David A. Kolbning⁴ tajribaviy o'rganish nazariyasiga asoslanib, **“learning by doing”** tamoyili orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Germaniyada mentorlik tizimi demokratik boshqaruv va ishonchga asoslangan tashkilot madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Bu yerda *peer-to-peer* va jamoaviy mentorlik modellari keng tarqalgan bo'lib, xodimlar o'rtasida bilim almashish erkin muhitda amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv Etienne Wenger tomonidan ilgari surilgan **“amaliyot jamoalari”** (*Communities of Practice*) konsepsiyasiga tayanadi. Germaniyada mentorlik tizimi dual ta'lim modeli bilan ham chambarchas bog'langan. Davlat va xususiy sektor hamkorligida tajribali mutaxassislar yosh kadrlarga ish jarayonida yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Ushbu tizim amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, *Vocational Education and Training* konsepsiyasiga asoslanadi. Shu bilan birga, Kathy E. Kram ta'kidlaganidek, mentorlik nafaqat kasbiy, balki psixo-sotsial qo'llab-quvvatlashni ham ta'minlaydi.

Birlashgan Arab Amirliklarida mentorlik tizimi raqamli transformatsiya siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Davlat xizmatchilari uchun sun'iy intellekt (AI) asosida mentor–menti moslashtirish, onlayn monitoring hamda KPI asosida baholash mexanizmlari joriy etilgan. Mazkur yondashuv *data-driven* boshqaruv konsepsiyalariga tayanib, inson resurslarini samarali boshqarish imkonini beradi.

Shu o'rinda Gruzija davlat xizmati samaradorligi so'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy baholanayotgani hamda davlat boshqaruvini isloh qilishdagi muhim tajribalardan biri sifatida e'tirof etilayotganini inobatga olib, ushbu mamlakat tajribasini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, Gruziyada davlat boshqaruvi samaradorligini baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri Jahon bankining **“Government Effectiveness”** indeksi hisoblanadi. **2023-yilda** mazkur ko'rsatkich 77,8 protsentil darajaga yetgan bo'lib, bu mamlakatning dunyo davlatlari orasida yuqori o'rinlarni egallayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, **1996-yildan 2023-yilgacha** mazkur indeksning **–0,64** dan **0,79** gacha o'sgani davlat boshqaruvi sifatining uzoq muddatli yaxshilanganini tasdiqlaydi.

Gruziyada davlat xizmatida mentorlik (ustoz-shogird) tizimi so'nggi yillarda kadrlar salohiyatini oshirish, yangi xodimlarni tezroq moslashtirish hamda institutsional xotirani saqlash vositasi sifatida shakllantirilgan. Mazkur jarayon, ayniqsa, *Civil Service Bureau of Georgia* tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Shuningdek, davlat boshqaruvida mentorlik tizimining maqsadlari, asosiy vazifalari, ilmiy asoslari, rag'batlantirish mexanizmlari hamda ta'sir choralari kompleks tarzda ishlab chiqilgan va tizimlashtirilgan. Ushbu tizim davlat xizmatchilarini tayyorlashda yangi qabul qilingan xodimlarni ish jarayoniga tezkor integratsiya qilish, amaliy bilim va ko'nikmalarni yetkazish, davlat boshqaruvida samaradorlik hamda hisobdorlikni oshirish, shuningdek, liderlik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv **Human Resource Management** va **Public Administration** nazariyalari hamda prinsiplari asosida shakllantirilgan.

Mentorlik tizimi quyidagi ilmiy konsepsiyalarga asoslanadi:

a) Ijtimoiy o'rganish nazariyasi. Mazkur nazariya Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy prinsipi xodimlarning tajribali mentorlarni kuzatish va ularga ergashish orqali o'rganishiga asoslanadi.

Bundan tashqari, davlat idoralarida **“on-the-job learning”** yondashuvi samaradorligini oshirish, davlat tashkilotlarida qoidalar va normalarni avloddan avlodga uzatish hamda mentorlik orqali institutsional barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir lavozim uchun zarur kompetensiyalar aniqlanib, mentorlar aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonlar quyidagi mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Ya'ni:

- mentorlarni tanlash tajribali va yuqori samaradorlik ko'rsatgan xodimlar asosida tashkil etiladi;
- juftlash (*matching*) — yangi xodim va mentor o'rtasidagi muvofiqlik ta'minlanadi;
- individual rivojlanish rejasi (**IDP**) ishlab chiqiladi;
- muntazam uchrashuvlar hamda amaliy topshiriqlar tashkil etiladi;
- baholash va monitoring tizimi joriy etiladi. Ushbu jarayonlarning eng muhim jihati shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash bo'lib, ular ko'pincha raqamli **HR** platformalari orqali nazorat qilinadi;
- aholi ishonchi ham muhim indikator hisoblanadi. **United Nations Development Programme** tadqiqotlariga ko'ra, Gruziyada davlat xizmatiga ishonch darajasi taxminan **67 %** ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich ko'plab rivojlanayotgan davlatlar bilan solishtirganda yuqori darajada ekanligini namoyon etadi.

4 Kolb, D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall, 1984.



Shu bilan birga, davlat xizmatchilarining 80 %⁵ i o'z ishidan faxrlanishi tizimda ichki motivatsiya yuqori ekanligini ko'rsatadi. Gruziya tajribasi bir qator ijobiy natijalarni namoyon etgan. Shu bois ilmiy tadqiqotlar va so'rovnomalar natijalariga ko'ra, ushbu tizimni boshqarish hamda takomillashtirish orqali quyidagi ijobiy ko'rsatkichlarga erishilganini kuzatish mumkin. Jumladan, xodimlarning adaptatsiya davri qisqargan, ish samaradorligi oshgan, kadrlar almashinuvi kamaygan, davlat xizmatchilari o'rtasida bilim almashinuvi kuchaygan, davlat xizmati samaradorligi bo'yicha xalqaro standartlar bilan uyg'unlik oshgan hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratilgan.

Shunday ekan, yuqorida ko'rib chiqilgan rivojlangan davlatlar tajribalaridan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, mazkur davlatlarda mentorlik tizimini joriy etishda raqamli platformalar, jamoaviy o'rganish, dual ta'lim hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining uyg'unligi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yondashuvlarning barchasi zamonaviy ilmiy nazariyalar bilan mustahkamlangan.

Tahlillarimiz natijasida ta'kidlash joizki, har bir davlatning geografik joylashuvi, etnik tarkibi, milliy xususiyatlari, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlari, shuningdek, jamiyatdagi axloqiy hamda etik me'yorlari davlat boshqaruvi, xususan, davlat fuqarolik xizmatining o'ziga xos shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda xulosa qilish mumkinki, Singapur, Daniya, Germaniya, Birlashgan Arab Amirliklari va Gruziya davlat xizmatidagi mentorlik tizimlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirishda ularni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki institutsional va madaniy xususiyatlarga mos keladigan gibrid modelni yaratish maqsadga muvofiqdir (4-rasm).



4-rasm. Xalqaro davlat xizmatida mentorlik tizimining qiyosiy rivojlanish modellari⁶

Albatta, bu kabi xorijiy davlatlarning tajribalarini ko'plab keltirish mumkin. Eng muhimi esa O'zbekiston Respublikasining milliy qadriyatlari, jamiyatdagi umumiy prinsiplar hamda normativ-huquqiy baza talablariga muvofiq tarzda o'ziga xos tizimni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Davlatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ularning geografik joylashuvi, qo'shni davlatlari hamda qardosh xalqlarning umumiy tamoyillari bilan uyg'un holda shakllanadi. Shu bois Respublikamizning Markaziy Osiyo hududida joylashgani, turkiy tilli davlatlar bilan mushtarakligi, islom madaniyati ta'sirida shakllangan ma'naviy qadriyatlari hamda yaqin qo'shni xalqlarning an'analari milliy boshqaruv yondashuvlarining o'ziga xos rivojlanishiga xizmat qilgan. Mazkur omillarni hisobga olgan holda, azaliy milliy qadriyatlarga tayangan boshqaruv va yo'naltirish usullaridan foydalanish samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Shu jumladan, o'zbek oilalarida kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish qadriyat darajasida shakllangan. Biz taklif qilayotgan davlat fuqarolik xizmatida mentorlik tizimini boshqarishni takomillashtirish jarayoni kompleks institutsional-uslubiy yo'riqnomalar hamda bosqichlar orqali respublikamiz davlat xizmatchilari uchun mos, ishonchli va samarali mexanizm bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bois quyida ushbu tizimni joriy etish yuzasidan zarur siyosiy, tashkiliy va iqtisodiy usullar hamda bosqichlar taklif etiladi. Bular jumlasiga siyosiy-ijtimoiy omillar, tashkiliy-iqtisodiy omillar, boshqaruv va huquqiy omillar, natijaviy hamda samaradorlik ko'rsatkichlari, shuningdek, monitoring va takomillashtirish bosqichlari kiradi. Bunda amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamohang holda qo'shimcha boshqaruv mexanizmlarini joriy

5 UNDP Georgia November 29,2019

6 Muallif ishlanmasi

etish hamda zarur o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish imkoniyati mavjud.

1. Milliy raqamli mentorlik platformasini yaratish.

Mazkur jarayonning dastlabki bosqichida vazirlik yoki qo'mitalarning **HR** bo'linmalari bilan hamkorlikda pilot loyiha sifatida markaziy apparat xodimlarini mentorlik tizimi bilan tanishtirish, media kampaniyalar o'tkazish, uslubiy qo'llanmalarni taqdim etish hamda ularni yaratiladigan mentorlik platformasiga (mentor yoki shogird sifatida) jalb etish tavsiya etiladi. Shuningdek, ushbu platforma orqali jarayonni boshqarish, faoliyatni monitoring qilish hamda erishilgan natijalarga muvofiq rag'batlantirish yoki tegishli ta'sir choralari qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur jarayon dastlab oddiy ko'rinishi mumkin, biroq vaqt o'tishi bilan **HR** bo'limlari faoliyatida tashkiliy va iqtisodiy xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari kengayadi. Jumladan, xodimlarni malaka oshirish xarajatlarini kamaytirish, ularning adaptatsiya muddatini qisqartirish va samaradorligini oshirish, obyektiv ichki kadrlar zaxirasini (**leadership pipeline**) shakllantirish, rahbar kadrlar reyestrini yaratish, xodimlarning karyera rivojlanishini monitoring qilish, **assessment** jarayonlarini tashkil etish hamda aniqlangan kompetensiya ehtiyojlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Natijada inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan samarali institutsional-uslubiy mexanizm shakllanadi.

Bundan tashqari, xodimlar faoliyatini **KPI** ko'rsatkichlari asosida baholash uchun shaffof hisobot tizimini yaratish imkoniyati ham yuzaga keladi.

Qolaversa, davlat organlarida mentorlik tizimini raqamli platforma orqali boshqarish va uni kadrlar siyosatining muhim bo'g'iniga aylantirish davlat idoralari faoliyatiga, rahbar kadrlarni tayyorlash hamda lavozimlarga tayinlash jarayonlariga nisbatan jamoatchilik ishonchi va sodiqligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash, davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchni yanada oshirish hamda rahbar kadrlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mentorlikka sarflanadigan mablag'ni oddiy xarajat sifatida emas, balki inson kapitaliga kiritilgan uzoq muddatli investitsiya sifatida baholash maqsadga muvofiq. Masalan, bitta yangi xodimni kasbiy jihatdan tayyorlash uchun mentorlik faoliyatiga shartli ravishda **25 mln so'm** yo'naltirilsa, ushbu mablag' qisqa muddatda o'z samarasini berishi mumkin. Mentor yangi xodimga kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'rgatadi, innovatsion fikrlashni shakllantiradi, kreativ yondashuvlarni rivojlantiradi hamda mustaqil va optimal qaror qabul qilish kompetensiyasini oshiradi. Natijada xodimning mehnat unumdorligi va mahsuldorligi ortadi, tashkilotga sodiqligi mustahkamlanadi, kadrlar almashinuvi kamayadi hamda ichki rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish imkoniyatlari kengayadi. Xalqaro tadqiqotlarda ham mentorlik inson kapitalini rivojlantirish va tashkilot samaradorligini oshirishning eng muhim vositalaridan biri sifatida e'tirof etilgan⁷.

Mentorlik dasturlarini joriy etish iqtisodiy nuqtayi nazardan ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Masalan, bir nafar mentor-rahbar besh nafar yangi xodim bilan **250 soat** davomida ishlaganda, unga sarflangan mablag' mehnat unumdorligining oshishi, yangi xodimlarning ish joyiga tezroq moslashishi hamda ularning tashkilotda uzoq muddat faoliyat yuritishi hisobiga bir necha barobar qoplanadi. Yangi xodimlarni sog'lomlashtirish, malaka oshirish, xorijiy stajirovkalar va boshqa rivojlantirish tadbirlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni samarali natijaga aylantirishda mentorlik tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mentorlik tizimi inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi⁸.

Amaliy hisob-kitoblar mentorlikning iqtisodiy va ijtimoiy samarasini yaqqol namoyon etadi. Masalan, 100 nafar xodim faoliyat yuritadigan tashkilotda har yili 20 nafar yangi xodim ishga qabul qilinib, ularga uch oy davomida mentor birlashtirilsa, ularning moslashish muddati olti oydan uch oygacha qisqaradi, mehnat samaradorligi 60 foizdan 85 foizgacha oshadi, xodimlar almashinuvi esa 25 foizdan 10 foizgacha kamayadi. Natijada tashkilot yuz millionlab so'mlik iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi hamda qo'shimcha daromad olish salohiyati ortadi. Shu bilan birga, jamoada o'zaro ishonch va hamkorlik muhiti mustahkamlanadi, tajribali xodimlarda yetakchilik va mas'uliyat hissi kuchayadi, yosh mutaxassislarining kasbiy moslashuvi tezlashadi hamda tashkilotning ichki kadrlar zaxirasi shakllanadi. Bu esa mentorlik tizimi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki tashkilotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim boshqaruv vositasi ekanligini tasdiqlaydi.

Motivatsiya va rag'batlantirish mexanizmi doirasida mentorlik faoliyati bevosita karyera o'sishi bilan bog'lanadi. Shogirdlarning erishgan natijalari mentorning lavozim bo'yicha o'sishini baholashda muhim mezonlardan biri sifatida e'tiborga olinadi. Bundan tashqari, mentorlik sertifikatini rahbarlik lavozimlariga

7 Clutterbuck D. *Everyone Needs a Mentor: Fostering Talent in Your Organisation*. – 5th ed. – London: Chartered Institute of Personnel and Development (CIPD), 2014. – 376 p. – ISBN 978-1843983422.

8 Kim P. S. *Innovating Training and Development in Government: The Case of South Korea // Innovations in Human Resource Management: Getting the Public's Work Done in the 21st Century* / Ed. by S. E. Condrey, P. Battaglio. – Washington, DC: IBM Center for The Business of Government, 2007. – P. 133–150.



tayinlash jarayonida muhim mezon sifatida joriy etish taklif etiladi. Ma'naviy rag'batlantirish maqsadida **“Faxriy mentorlar”** tizimi hamda e'tirof etish mexanizmlarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ushbu masalaning muhim jihati shundaki, mentorlik tizimini davlat tashkilotlarida samarali tatbiq etish uchun bugungi kunda jadal rivojlanayotgan global axborot almashinuvi sharoitida zamonaviy yondashuvlar va innovatsion usullardan foydalanish zarur. Shu bois ilmiy izlanishlarimiz natijasida ma'qullangan bir qator samarali mexanizmlarni respublikamiz davlat fuqarolik xizmatiga joriy etish taklif etiladi.

Tadqiqot natijalari davlat fuqarolik xizmatida mentorlik tizimini takomillashtirishning yangi ilmiy yechimlarini asoslash imkonini berdi. Davlat fuqarolik xizmatida rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini institutsional rivojlantirish sharoitida mentorlik tizimini samarali boshqarish orqali inson kapitalini rivojlantirishning innovatsion modeli ishlab chiqildi. Shuningdek, **“Leadership Pipeline”** va reversiv mentorlik yondashuvlarini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi taklif etildi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli monitoring hamda tahliliy baholash vositalariga asoslangan innovatsion raqamli boshqaruv modeli ishlab chiqildi hamda **EMCC**, **IMA** va **ICF** standartlarini milliy boshqaruv amaliyoti bilan uyg'unlashtiruvchi konseptual mentorlik dasturi tavsiya etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat tashkilotlarida mentorlik tizimi rahbar va mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, yangi xodimlarni moslashtirish hamda institutsional bilim va tajribani uzluksiz uzatishda muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, amaldagi tizimni yanada takomillashtirish maqsadida mentorlarni tanlash, tayyorlash, ularning faoliyatini baholash hamda monitoring qilishning yagona mexanizmlarini izchil rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba tahlili mentorlik tizimini raqamlashtirish, kompetensiyalarga asoslangan baholash, mentorlarni sertifikatlash hamda natijadorlik ko'rsatkichlari (**KPI**) asosida monitoring qilish samarali natijalar berishini ko'rsatdi. Shu bois O'zbekiston davlat tashkilotlarida mentorlik tizimini institutsional jihatdan yanada takomillashtirish, milliy mentorlik modelini ishlab chiqish hamda raqamli monitoring platformasini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari davlat fuqarolik xizmatida mentorlik tizimini boshqarish samaradorligini oshirish, rahbar kadrlarni tayyorlash sifatini yuksaltirish hamda davlat boshqaruvi organlarida inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, taklif etilgan yondashuvlar davlat fuqarolik xizmatida mentorlik tizimini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va institutsional salohiyatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Davlat xizmati to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ–788-son, 2022-yil 8-avgust. – URL: <https://lex.uz/docs/6145972>
2. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash mexanizmlari: monografiya / mualliflar jamoasi. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. PF–95-son. – URL: <https://www.lex.uz/docs/7587464>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni. PF–78-son, 2025-yil 5-may. – URL: <https://www.lex.uz/docs/7520315>
5. Mirziyoyev Sh. M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/09/book/>
6. Kolb D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
7. Wenger E. *Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
8. Kram K. E. *Mentoring at Work: Developmental Relationships in Organizational Life*. – Glenview, IL: Scott, Foresman, 1985.
9. Trading Economics. *Georgia – Economic Indicators and Data*. – URL: <https://tradingeconomics.com/georgia/indicators>
10. United Nations Development Programme (UNDP). *UNDP Georgia*. – 2019, November 29. – URL: <https://www.undp.org/georgia>
11. Clutterbuck D. *Everyone Needs a Mentor: Fostering Talent in Your Organisation*. – 5th ed. – London: Chartered Institute of Personnel and Development (CIPD), 2014. – 376 p.
12. Kim P. S. *Innovating Training and Development in Government: The Case of South Korea // Innovations in Human Resource Management: Getting the Public's Work Done in the 21st Century* / Ed. by S. E. Condrey, P. Battaglio. – Washington, DC: IBM Center for The Business of Government, 2007. – P. 133–150.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100